

JALOLIDDIN RUMIYNING ISLOM DINI TAFAKKURIGA QO'SHGAN HISSASI VA "ICHINDAGI ICHINDADUR" ASARI HAQIDA

Ilmiy rahbar: Samatov X. U.

Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Samarqand filiali

Anorov Rasulberdi
AX23-08 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Jaloliddin Rumiyning hayot yōllari , islom dini tafakkuriga qo'shgan hissalari va "Ichindagi ichindadur" asari haqidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: islom, din, masnaviy, g'azal, ruboiy, devon, ilm, ma'rifat. Rumiy Jaloliddin (1207, Balx — 1273, Ko'nya) — shoir va mutafakkir. Tasavvufdagi mavlaviya tariqatining asoschisi. Arab, fors va turkiy tillarida ijod qilgan. Otasi Bahouddin Valad sufiylar va fiqh donishmandi bo'lgan. Shu bois ham sulton Muhammad Xorazmshoh (1199—1220) saroyga taklif etgan. Pekin Valad uning taklifini rad etib, maktabdorlik hamda ilmiy-ijodiy ish bilan mashg'ul bo'lgan. Xorazmshoh bilan kelisholmagan Valad haj safari bahonasida oilasi bilan Balx shahrini tark etgan. Rumiy Makka yo'lida Farididdin Attor bilan uchrashgan. 1220-yil Rum sultoni Alouddin Kayqubod I ning da'vati bilan Ko'nya (Kichik Osiyo) ga kelgan. Rumiy Halab, Damashq va Bag'dod madrasalarida o'qigan, mudarrislik qilgan.

Rumiy shaxsiyati kamolotida shoir va shayx Shams Tabriziyning o'rni katta. U 3 yil Rumiyga dars beradi: falsafa, xususan, so'fiylik ta'limotini o'rgatadi. Shoirning o'zi ham bir baytida "Agar Attor menga ruh baxsh etgan bo'lsa, Shamsi Tabriziy tilsim kalitini tutqazdi", degan. 1244-yil Rumiy ustozini nihoyatda hurmat qilgani uchun o'z g'azallarida "Shamsi Tabriziy", "Shamsi" taxalluslarini qo'llay boshlagan. Shoir g'azallarining "Shamsi Tabriziy devoni" nomi bilan shuhrat qozonishining boisi ham shunda [42 ming baytli "Devoni Kabir" ("Ulug' devon")ning ikkinchi nomi "Devoni Shamsi Tabriziy"].¹

¹ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Rumiy_Jaloliddin





Ilmiy doiralarda uni goh Kant, goh Spinoza, goh Hegel kabi faylasuflar bilan qiyoslaydilar. Ammo Mavlono Rumiy hech kimga o'xshamaydi. U muazzam Sharq tafakkurining mo'jizali bir haykalidirkim, unda tasavvuf taraqqiyoti ham, ilmu hikmat va falsafa ham, she'riyat va ma'naviyat ham birlashib, oliv ko'rinishda namoyon bo'ladi. Jaloliddin Rumiy o'zidan keyingi Sharq she'riyati, fikriy va ma'naviy taraqqiyotiga ulkan ta'sir o'tkazgan ijodkordir. Alisher Navoiy uni ilohiy ishq kuychisi, buyuklikning ko'z ilg'ammas cho'qqisi deb sharaflaydi. Mavlono Jaloliddin Rumiyning ilmiy va adabiy merosi g'oyat katta. G'azal, masnaviy va ruboilyarni o'z ichiga oladigan „Devoni kabir“ („Ulug' devon“)da uch mingdan ortiq she'r bor. Falsafiy-so'fiyona mushohadalar, ruhiyat dialektikasini kashf etib, inson aqlini lol qoldiradigan teranlik bilan yozilgan „Masnaviy-ma'naviy“ ham bir necha ming baytdan iborat. Bundan tashqari, „Maktubot“, „Fihi mo fihiy“ („Ichindagi ichindadir“) nomli asarlari ham mavjud.²

Rumiyning asarlari asosan fors tilida yozilgan, ammo ba'zida she'r yozishda u turk, arab va yunon tillaridan ham foydalangan. Uning Konyada yozilgan „Masnaviy ma'naviy“ asari fors tilidagi eng buyuk asarlardan biri hisoblanadi. Mavlono Jaloliddin Rumiy — jumla bashariyat nomini hamisha iftixor ila tilga oladigan buyuk ijodkor, betimsol alloma, uning „Masnaviyi ma'naviy“ asari esa teran hayotiy o'gitlar, beba ho hikmatu haqiqatlar xazinasidir. Uning asarlari bugungi kunda buyuk Eronda va fors tilida so'zlashadigan dunyoda asl tilda keng o'qiladi. Uning asarlari tarjimalari, ayniqsa Turkiya, Ozarbayjon, AQSh va Janubiy Osiyoda juda mashhur. Uning she'riyati nafaqat fors adabiyotiga, balki Usmonli turk, Chagatay, urdu va pashtu adabiy an'analariga ham ta'sir ko'rsatdi.³

“Ichindagi ichindadur” asari haqida

Bu asar insonni fikrlashga, fikrlash orqali o'zligini, o'zligi orqali Haqni — Yaratganni tushunishga undaydi. Shuning uchun ham «Ichindagi ichindadur»ga bir marta oshno bo'lgan ko'zi ochiq insonki bor, umrbod undan ayrimasam, deydi. Chunki asar, avvalo, o'sha inson haqida — siz haqingizda, men haqimda, umuman, hammamiz haqimizda. Bizning o'zligimizni bilishimiz haqida. Axir olamda bundan qiziqarliroq, bundan muhimroq yana nima bor? Mashoyixlar «O'zini bilgan avliyo bo'ladi» deya beziz aytishmagan. Hazratning o'zi shunday deydi: «Rivoyat qiladilarki, bir podshoh o'g'lini hunarmandlar to'piga qo'shib qo'yibdi. Ular bolaga turli bilimlardan, jumladan, ilmu nujumdan dars berishibdi. Shoh o'g'li butunlay

² „Краткая биография Джалаладдина Руми (30 сентября 1207 - 17 декабря 1273).“

³ https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Jaloliddin_Rumiy

ahmoq bo‘lgani holda o‘ziga o‘rgatilgan narsalarni puxta egallab olibdi. Kunlardan bir kun podshoh uni imtihon qilmoq uchun hovuchiga uzugini berkitib, o‘g‘liga «Bunda ne bor?» debdi. Bola «Qo‘lingdagi dumaloq, sariq va ichi bo‘sh narsadir» degach, hukmdor hayratda qolib «Alomatlarini to‘g‘ri aytding, ismini ayt» deb buyuribdi. O‘g‘il «G‘alvir bo‘lsa kerak» deb javob beradi. Podshoh «Olgan tahsiling sharofati bilan meni hayron etib alomat — belgilarni aniq ayting-u, ammo g‘alvirning hovuchga sig‘masligiga qanday qilib farosating yetmadi?» dedi afsus chekib.

Xuddi shunday, — deb davom etadi Rumiy hazratlari — zamonamiz olimlari ham qilni qirq yoradilar, o‘zlariga bog‘liq bo‘lmagan narsalarni juda yaxshi biladilar, ammo o‘ta muhim, o‘zları uchun qolgan barcha narsalardan yanada yaqin bo‘lganni, ya’ni o‘zlarini bilmaydilar. Hamma narsadan yaqin bo‘lgan borliq bu — ularning menligi». Mavlono Rumiy insonni, avvalo, ko‘zini ochishga va ochilgan ko‘zlar bilan o‘z mohiyatiga nazar tashlashga undaydiki, bu bilan ul valiy zot insonning o‘zi bir butun olam — kichik olam ekanligini uqtiradi.

«Ichindagi ichindadur» asari ulug‘vorlik va soddalikning bir makonu bir zamonda sig‘ishib yashashining go‘zal namunasidir. Albatta, komil inson — avliyolik asrori haqida ko‘plab olimu fuzalolarning xilma-xil asarlari mavjud. Lekin ularning ayrimlarini mutolaa qilarkanmiz, o‘zimizni xuddi ertak o‘qiyotgan boladek sezamiz. Chunki ularda tasvirlangan avliyo yoki komil inson go‘yo osmonda uchib yurgan erkin qushchayu, sizu biz zindonda — temir panjaradan uni umidsizligini kuzatib yotgan maxbus. Qushning ozodligidan, charx urib aylanishidan, baxtidan maxbusga ne naf? Qaytaga u ana shunday hur parvozi bilan bu bechoraning o‘z holiga ko‘nikib ketishiga to‘sinqilik qilib, iztirobini orttiradi, xolos. Rumiyda esa unday emas. Rumiy shohu gadoga ham, olimu avomga ham birdek xitob qiladi. Va har kimning qarshisiga o‘z hikmatlaridan bir ko‘prik tashlab, boshqalar nima desa deyaversin, lekin sening ham bu yo‘ldan o‘tishga haqqing bor, ki sen ham undan o‘tishga munosib va qodirsan, faqat g‘ayrat qil-da, kel!» deydi go‘yo. Boshqacha aytsak, Jaloliddin Rumiyning «Ichindagi ichindadur» asari insonlik va ilohiylik o‘rtasiga qo‘yilgan mustahkam ko‘prikdir.

Rumiyni bir millat, bir jamiyat yoki bir zamongagina taalluqli qilmay, uni hamma uchun va hamma zamonlar uchun qadrli aylagan asos ham shunda — hazratning sifat va alomatlarga emas, balki mohiyatga — insonning o‘zagiga e’tibor bergenligi bilan izohlansa, ajabmas. Chunki zohir — tashqi ko‘rinishga qaralganda insonlar har xil, ularning mohiyati ildizi, tabiat, ehtiyojlari, borar joyi... esa mushtarak. Shunga ko‘ra inson qaysi millat, qaysi jamiyat, qaysi guruh va qaysi



zamonga aloqadorligidan qat'i nazar, o'ziga tegishli mavzular teran va asosli tarzda talqin qilinganidan Rumiy asarlari atrofida go'yo bir oilaning farzandlariday to'planishadi. Buning uchun kishida ma'lum bir tayyorgarlik, yuqori ruhiy-ma'naviy daraja zarur, albatta. Ya'ni Rumiyini tushunish uchun u yongan gulxanning hech qursa bir uchquni o'quvchining ko'ngliga tushgan bo'lishi juda ham muhim. Shunda u mohiyat asrоридан voqif bo'la borarkan, o'zini Inson o'larоq his etadi! Dunyoga kelishdan muddao «yo'lini qilib kun kechirish — yeb, ichib, nasl qoldirib o'tish» kabi biologik ehtiyojlarni qondirib yashashdangina iborat bo'lmay, aksincha, bular vositayu, maqsad — ruhoni, demakki, insoniy ekanligini qalban anglaydi. Mohiyatdan so'z ochib Mavlono Rumiy quyidagi savol-javobni keltiradi:

Dediki: «Onangni nechun o'lording?» Dedi: «Unga yarashmagan bir ishni ko'rdim». Dediki: «Ammo onangni emas, yetti yot begonani o'ldirsang bo'lmasmidi?» Dedi: «Har kuni bittadan o'ldirayinmi?»

Hazrat bu o'rinda inson gumrohligining tub sababi — nafs haqida so'z yurita turib, demoqchi bo'ladi: sen hadeb qilmishlaringning oqibatini daf etishga, ularni u yoki bu shaklda xaspo'shlashga behuda urinaverma, balki mohiyatga teran ko'z-la nazar sol-da, asos bo'lgan nafsingni (onani) jilovla, toki u tufayli har kuni har kim bilan yoqalashishga o'rin qolmasin!

Hazrat o'gitlaridagi yana bir jihatga alohida to'xtalib o'tmoq joiz. Bu ham bo'lsa — ruh va jism o'rtasidagi muvozanat masalasi. Bizdan ko'pchiligidan shundaymizki, ruh haqida gapirilsa (garchi bu borada insonga kam ilm berilgan esa-da) darhol ruhparast bo'lishga tirishamiz, qolgan vaqtarda esa o'z-o'zidan jism bandalariga aylanib qolganimizni o'zimiz ham sezmaymiz. Asli haqiqat nimadan iborat? Yana ham to'g'rirog'i, qanday holda biz haqiqatga eng ko'p yaqin borgan bo'lamiz? Agar savolni shunday qo'yish mumkin bo'lsa, javobni yana Rumiy hazratlaridan eshitamiz: «Agar danakni chaqib, mag'izini eksang, unmaydi. Agar qobig'i bilan birga tuproqqa qadasang-chi, unish hodisasi yuz beradi». Danak mag'izini ruhu, qobig'ini jism deb olinsa, demak, inson bolasi biron maqsadga yetishmak uchun har ikki asosga suyanishi zarur. Aks holda maqsad hosil bo'lmas. Modomiki shunday ekan, odamzod yashash va kelajakka intilish asnosida har qanday bir tomonlamalikdan, goh u yon, goh bu yonga og'ib ketishlardan tiyilib, ana o'sha oltin o'rtalik boshini tutmog'i zarur keladi.

Axir payg'ambarimizning hech qachon o'lmaydigandek bu dunyo uchun, ertaga o'ladigandek oxirat uchun yasha degan o'gitlari ham mohiyatan yuqoridagilarga hamohang jaranglamaydimi! Axir ochiq ko'z bilan hayotni kuzatuvchi hassos qalb va aql egalari ham ayni haqiqatga bot-bot duch keladilar-ku!..



Proceedings of International Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Moscow, Russia

Date: 11th January, 2024

ISSN: 2835-5733

Website: econferenceseries.com

Mana shuning uchun ham qariyb 700 yil avval yaratilgan bo‘lishiga qaramay, Rumiylar asarlaridan hayot nafasi esadi deging kelaveradi. Zero, hazratning o‘zlarini tafakkurning har qanday mahdudligini yorib o‘tishga qaratilgan keskir so‘zlar «insonning botini – hurriyat olami» ekanligini anglashga da’vat etadi va shunga undayveradi.⁴

Mavlono Rumiy bizga yetuk inson qanaqa ekanligini anglatibgina qolmay, komil inson bo‘lishimizga ko‘plab nasihatlar va hikmatlar bitib ketganlar. Jaloliddin Rumiy odamlarga o‘zligini tanishi darsini beradi. Xalqni to‘g‘ri yo‘lga hidoyat qiladi. Uning barcha asarlarida futuvvat va muhabbat doim rahnamolik qilgan va u bularni hamma uchun talqin qilgandir.

Mavlono Jaloliddin o‘zining shohasari va serma‘no jilodar so‘zlari orqali barcha qalblarga yo‘l topib borgan, o‘zi esa borliqda doim Komil insonni izini izlardi. U insonni Haqq taolloning buyuk yaratilgan maxluqoti deb bilar edi. Uning zehnida Tangrining yaratgan bacha odamlari o‘rtasida hech qanday farq qo‘ymasdi. Uning uchun musulmonu nasroniy, yahudiyu hind ham birday edi. U borliqning obodligini tinchlik totuvlikda, Insonning ma‘naviy kamolotidagi hurfikrlilikda, birodarliku birdamlikda, tengliku totuvlikda ko‘rardi. Uning bunday durdona falsafiy fikrlari yeri osmonni bir-birining panofiga mo‘htojligiyu bir-birisiz tasavvur qilishning imkoniy yo‘qligigachadir.

Jaloliddin Rumiyning maqsadi har bir inson qalbida ilohiy muhabbatni his ettirish va uni avj oldirishdir. Aynan shu muhabbat nuri insonga asosiy ruhiy ozuqa beradi va inson atrofidagi barcha narsalarning yashiringan go‘zal siyimosini ko‘rishga imkoniyat yaratdi. Bu go‘zallik esa butun olamning naqshi bo‘lib, unda Allohning jamoli yashiringan. Lekin bu go‘zallik niqob ostida yashiringan. Faqat inson qalbidagi muhabbat hissiyoti bu niqoblarni ohib tashlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Краткая биография Джалаладдина Руми (30 сентября 1207 - 17 декабря 1273).“
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Rumiy_Jaloliddin
3. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Jaloliddin_Rumiy
4. <https://kh-davron.uz/>

⁴ <https://kh-davron.uz/>



5. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.
6. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." Theoretical & Applied Science 2 (2016): 175-179.
7. Samatov, K. (2016). Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society. Theoretical & Applied Science, (2), 175-179.
8. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.
9. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
10. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction.
11. Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani) //European Scholar Journal. – 2021. – T. 2. – №. 11. – C. 45-48.
12. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.
13. Ulmasjonovich, K. S. (2021). Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani). European Scholar Journal, 2(11), 45-48.
14. "JALOLIDDIN RUMIY FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI" Tahmina Shodmonovna Vohidova maqolasi